

О‘ЗБЕКISTON VA TURKIYA TRANSSIVILIZATSION YONDASHUV ORQALI MADANIYATI: KIYINISH, OVQATLANISH, BAYRAMLAR VA TURIZM MADANIYATI INTEGRATSIYASI

**Po‘latova Sitora Nizomjon qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti 2519-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Ahmedjanova Dilafuz Batirovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Turkiya madaniy merosi transsivilizatsion yondashuv orqali taqqoslanadi. Kiyinish, ovqatlanish, hunarmandchilik, sahna va ekran madaniyati orqali turizm sohasidagi integratsion imkoniyatlar va madaniy resurslarning xalqaro jalb etuvchi roli tahlil qilinadi. Ikki madaniyat o‘zaro taqqoslanib yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniyat, millat etnogenezi va etnik tarix, ijtimoiy turmush, ulug‘ qadriyatlar, transsivilizatsion yondashuv, komparativ tahlil, madaniy turizm.

Kirish. “Sir emaski, har qaysidavlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati bilan kuchklidir”, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov. Haqiqatan ham, turk va o‘zbek madaniyati o‘xshash o‘zak islomiy qadriyatlar, mehmondo‘stlik, oilaga sadoqat va boy taomlar madaniyati bilan ajralib turadi. Tildagi yaqinlik va tarixiy meros birlashtirsa, turklar g‘arbiy ta’sir va dengiz bo‘yi an’analariga, o‘zbeklar esa ko‘proq Markaziy Osiyo an’anaviy turmush tarzi va tarixiy shaharlarga urg‘u beradi.

Turkiyalik professor Bahattin Yediyildiz turk madaniyatini millatning kimligi sifatida ta’riflab, shunday dedi: “Madaniyatga ega jamiyatlar millat bo‘ladi. Millat o‘z madaniyatini boshqa xalqlarga foyda keltoradigan darajaga olib chiqqanida, o‘sha madaniyat sivilizatsiyaga aylanadi. Turk millati sivilizatsiya yaratuvchi millatdir, ammo

bugungi madaniyat darajasi hali sivilizatsiya darajasiga yetmagan. Shu sababli strategiyamizni bu yo‘nalishda belgilashimiz lozim”.

O‘rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko‘p asrlik tarixga ega. O‘zbek xalqimizning an‘anaviy kiyim-kechagi, asosan, ayollarda boshda do‘ppi va egnida atlas vaadras, oyoqlarida maxsi-kalish bo‘lsa, erkaklar tizzagacha yaktak ko‘ylakda, ishton va chopon, boshlarida do‘ppi bo‘lgan. Bunday kiyinish uslublari hamma viloyatlarda turli xil bo‘lgan. Masala, gorizontal yirmochi yoqali ko‘ylak Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida, Toshkent, Buxorova Xorazmda keng tarqalgan. Ayollar ko‘ylagining yoqasiga ham kashtalangan yoki bezatilgan gulli keng tasma taqilgan. Shu kabi eski, oddiy bichimdagi ko‘ylaklarni avvalgi davrlarda ham ko‘proq 50-60 yoshli ayollarsevibkiyishgan. Chunki bu bizning milliy iftixorimiz. Ammo hozirgi kunga kelib, kelinlar sarpolari ham juda rang-barang. Bugunga kelib, milliy kiyimlar ko‘proq qishloqda, alohida ayollar sarposida ko‘zga tashlanadi xolos. Shahar aholisining ko‘pchiligi yevropacha uslubda kiyinishni odat qilishgan.

Turkiyada ham O‘zbekistondagi kabi **Usmonli imperiyasi (1299-1922)** davrida kiyim-kechak ijtimoiy mavqe, jins va huduga qarab farqlangan. Ular ipak yoki atlas matodan tikilgan keng va hashamdor kiyimlarni xush ko‘rishgan. Bu davr kiyimlari bugungi kunda ham milliy libos sifatida qadrlanadi. Turklarning “FES” deb nomlanuvchi mashhur bosh kiyimlari mavjud bo‘lib, usti tekis, odatda qizil, to‘qilgan, silindrsimon bo‘ladi. Yuqori tabaqa vakillarining kiyimlari oddiy xalqnikidan qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligi, hashamatli matolardan tikilganligi bilan farqlanadi. Turklarda kiyinish uslubi faqatgina ijtimoiy maqomga emas, balki geografik joylashuvga ham bog‘liq bo‘lgan. Masalan, Istanbul, Ankara, Izmir, Antalya kabi shahar markazlarida insonlar yevropa uslubida kiyinishgan. Bu esa o‘z navbatida yevropa madaniyatini ham olib kelgan. Shalvar, ko‘ylak, kamzul va ustki kiyimdan iborat bo‘lgan erkaklar kiyimlari haligacha saqlanib qolgan. Ayollarda hijob va ro‘mol erkaklarda esa bosh kiyim liboslarining ajralmas qismi edi. Kelinlarning sarpolari yorqin va turli bezaklarga boyligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbeklarning oziq-ovqatlari bir tomondan xo‘jalik xususiyatlari va sharoit bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan mahalli etnik guruhlar madaniyatining o‘ziga xosligi bilan belgilangan. Masalan, qadimda o‘troq va ko‘chmanchi aholi taomlari farqlangan. Shunga qaramasdan o‘zbek taomlari ichida qadimiy davrlardan xamir ovqatlar alohida o‘rin egallaydi. Har bir o‘zbek dasturxonida non mahsulotini ko‘rishimiz mumkin. Chunki non va boshqa xamir ovqatlar uchun ishlatiladigan bug‘doy, arpa, makkajo‘xori unlari inson organizmi uchun zarur vitamin va minerallarga boy bo‘ladi. Bundan tashqari o‘zbek milliy taomlari yoqimli ta‘mi va boy tarixi bilan dunyoga mashhur. Palov, somsa, manti, shashlik va sho‘rva kabi taomlar o‘zbek oshxonasining asosiy taomi bo‘lib, asosan go‘sht va ziravorlar bilan tayyorlanadi. To‘y va turli marosimlar uchun ham palov eng yaxshi tanlov. O‘zbek xalqini mehmondo‘st deb atashlari ham bejiz emas. Har bir kelgan mehmon o‘zbek xonadonidan bir payola choy ichmasdan chiqmaydi. Bunda hurmat, insonparvarlik tuyg‘ulari va ochiq ko‘ngillilikni ko‘rishimiz mumkin. Zero, mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

Turk oshxonasi asrlar mobaynida Yaqin Sharq, Kichik va O‘rta Osiyo madaniyatlari ta‘sirida shakllangan. Turk oshxonasi ham go‘shtli ovqatlarga boy bo‘lib, turli mintaqalarning an‘analarini o‘zida aks ettiradi. Ularning mashhur taomlariga (kunjutli teshikkulcha, laxmajun, Iskandar kabob, Andana kabob, kofte, menemen, burekas) butun dunyo qiziqish bildirmoqda. Ammo turk oshxonasida shirinlik ishqibozlari uchun ham lokum, holva, pahlava kabilar topiladi. Bundan tashqari Turkiya madaniyatining ajralmas qismiga aylangan turk choyi o‘zining shinavandalariga ega bo‘lib ulgurgan. Bu choy o‘zbeklarniki kabi mehmondo‘stlik belgisi hisoblanadi va u kunning istalgan vaqtida do‘stlar yoki oila davrasida ichiladi. Ayniqsa, zaytun daraxtlari ko‘p o‘sadigan Turkiyaning g‘arbiy qismlarida zaytun moyi pishirish uchun ishlatiladigan asosiy yog‘dir. Bu mamlakat yong‘oq va findiqning dunyodagi asosiy ek sportchisi hamdir.

O‘zbekistonning qonuniy, milliy va diniy bayramlari xalqning boy tarixi, mustaqillik g‘oyasi va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng har yili 31-avgustni “Mustaqillik kuni” sifatida keng

nishonlaymiz. Bu barcha uchun dam olish kuni hisoblanadi. Shu bilan birga mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ramzlarimiz ham qabul qilindi. Bu kunlarni ham turli muassasalarda keng nishonlaymiz. Toshkent shahridagi xotira maydonida har yili 9-may “ Xotira va qadrlash kuni” ni tantanali marosim sifatida o‘tkazamiz. Milliy bayramlarimizdan eng qadimiysi va eng sevimlisi – Navro‘z. Bu kun 21-mart ya’ni bahor kirib kelishini anglatadi. Bu kunda barcha o‘ziga xos uslubda kiyinib tomosholar o‘tkaziladi va buvi-momolarimiz doshqozonlarda sumalak, halim, ko‘ksomsa kabi taomlar tayyorlashadi. Bundan tashqari, diniy bayramlar – Ramazon hayoti va Qurbon hayiti ham rasmiy dam olish kunlari sifatida e’lon qilinadi. Bu kabi bayramlar mehr-shafqat saxovat va bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qiladi.

Turkiya Respublikasining ham turli bayramlari mamlakat tarixini, mustaqillik kurashini va diniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu bayramlar Turkiya jamiyatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, tantanali marosimlar va umumxalq sayllari bilan nishonlanadi. Ularda 29-oktyabr – “Respublika kuni” (Cumhuriyet Bayrami). 1923-yil 29-oktyabrda Turkiya Respublikasi e’lon qilingan. Bu ular uchun eng muhim bayram bo‘lganligi uchun butun mamlakat bo‘ylab bayroqlar ilina, konsert va tantanalar bo‘lib o‘tadi. 23-aprel – Milliy suverenitet va bolalar kuni. Bu bayram 1920-yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisi ochilgan kun munosabati bilan nishonlanadi. Uni Mustafa Kemal Atatürk bolalarga bag‘ishlagan. Shu sababli bu kun nafaqat siyosiy, balki bolalar bayrami sifatida ham nishonlanadi. O‘zbeklarniki kabi Turklarda ham Ramazon va Qurbon hayiti nishonlanadi. Ularning odati bo‘yicha bu bayramlar 3-4 kun davom etadi va bir-birini ziyorat qilib, kattalarning qo‘llarini o‘pishadi. Bu kunlar ham rasmiy dam olish kunlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, qadimdan buyuk ipak yo‘lining muhim chorrahalaridan biri hisoblangan. Vaqtlar o‘tishi bilan mamlakat har sohada, shu bilan birga turizm sohasida ham rivojlanib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida yurtimiz ob-havosi, tarixiy-me’moriy obidalari, mehmondo‘st xalqi va yaratilayotgan qulay shart-sharoitlaridir. Masalan, tarixiy-madaniy turizm sohasida Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar jahon tamaddunida alohida o‘rin tutadi.

Temuriylar davri madaniyatining yuksak namunasi hisoblangan Samarqanddagi Registon maydoni XV-XVII asrlarda bunyod etilgan me'moriy majmuadir. Shuningdek, Xivadagi Ichan qal'a majmuasi 1993-yil UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Buxoro shahri ham 2001-yilda shu ro'yxatdan joy oldi. Turizm sohasida "Zomin" dam olish maskanini ham baralla e'tirof eta olamiz. Bu yerdagi continental iqlim va shifobaxsh o'simliklar barchani birdek hayratga solmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 1991-yildan so'ng turizm sohasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

O'zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlarning soni keskin oshishiga yana birdan bir sabab 2016-yildan boshlab vizasiz rejim joriy etilishi edi. Infratuzilmalarning ham yangilanishi natijasida yanada bu sohaga ko'proq e'tibor qaratilib, rivojlantirildi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning jahon turizm xaritasidagi o'rnini yanada mustahkamladi.

Barchamizga ma'lumki, Turkiya dunyo bo'yicha eng ko'p turistlar tashrif buyuradigan joy. Albatta, buning o'z sabablari bor. Masalan, zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimi, tarixiy merosi (obidalar), mehmondo'stligi va dengizi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mamlakatda tarixiy obidalarni asrash, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish muhim sanaladi. Turkiya "uch dengiz mamlakati" hisoblanadi: O'rta Yer dengizi, Egey dengiziva Qora dengizlardir. Turkiyaning har qanday ob-havo va fasllarga moslangan dam olish maskanlari mavjudligi ham insonlarni o'ziga jalb qiladi. Turistlar davlat iqtisodiga ham juda katta hissa qo'shishmoqda.

Istanbul nafaqat Turkiyaning balki, butun dunyoning muhim sayyohlik markazlaridan biridir. Shahar o'zida minglab mehmonxonalar, turizmga yo'naltirilgan korxonalar va tabiati go'zalligi bilan farqlanadi. 2013-yil yanvar oyida Turkiya hukumati Istanbulda eng katta aeroport qurishini e'lon qildi. Turk tarixi va uning madaniyatiga boy bo'lgan shahar Anqarada Ota turk maqbarasi mavjud.

G'ayritabiiy ko'rinishdan bahramand bo'lishni xohlavchilar Kapadokyaga tashrif buyuradilar. Kapadokyadagi noyob tosh shakllari va havo sharlaridagi

sayohatlar insonga xush yoqadi. Antalya juda issiq bo'lganligi sababli insonlar bu yerga oftobda toblanish va dengizni ko'rish maqsadida kelishadi. Turkiyaga tashrif buyurganlar soni 2017-yilda 37.9 millionga va 2018-yilda 46.1 millionga ko'tarildi.

Turkiya madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy Gaziantep Madaniyat yo'li festivalining ochilishidagi nutqida shunday dedi: "Bu yil 16 ta shaharda o'tkazgan festivalimiz mamlakatimizning eng yirik va boy loyihalaridan biriga aylandi.

Madaniyat va san'at bilan uyg'unlashgan turizm hamda madaniyat siyosatlari natijasi bo'lgan. Madaniyat yo'li festivali ishtirokchilari soni bilan bugungi kunda dunyodagi eng katta festivallardan biri hisoblanadi.

Xulosa: O'zbekiston va Turkiya madaniyatlari o'rtasidagi tarixiy va ma'naviy yaqinlik asrlar davomida shakllangan mushtarak ildizlarga borib taqaladi. Har ikki xalq turkiy tamaddun vakillari sifatida til, urf-odat, an'ana va qadriyat, madaniyatlarga egadir. Bu nafaqat tarixda, balki bugungi kunda ham faol davom etayotgan ma'naviy yaqinlik va hamkorlik aloqalaridan namoyondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iso Jabborov "O'zbeklar: turmushtarzivamadaniyati" O'zbek(kir), Toshkent, 2003-yil, 208 bet, ISBN raqami: 5-645-04112-7, O'qituvchinashriyoti.
2. "Fidokor" gazetasi (2008-yil 8-may).
3. Ileri Duzey "ORHUN" 2004-yil, kitap\derskitabi, TIKAJurnali, Ankara,
4. "RASMLI TURK ADABIYOTI TARIHI" Nihad Sami Banarli (I), 130.00 TL, Kodi: 8455216
5. Wikipedia.uz
6. Karimov.I.A O'zbekistoniqtisodiyislohotlarnichuqurlashtirishyo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1995.
7. Karimov.I.A Ozod vaobodvatan, erkinvafarovonhayot – pirovardmaqsadimiz. Asarlar, 8-jild, T.: "O'zbekiston", 2000 y.
8. IbrohimovA . "Yorug'lug". – T.: "O'zbekistonmilliyensiklopediyasi" Davlat ilmiynashriyoti , 2006 y.